

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Jild 3, Son 6/S
2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/6 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа оқтори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал:

https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Мамаражабов Бобир Нормўмин ўғли

САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ
АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК8-17

Хайдаров Абдулходи Ахмадали ўғли

XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДА ФАРҒОНА ВИЛОЯТИДА БОҒДОРЧИЛИК ВА
ТОМОРҚАЧИЛИКДАГИ ЎЗГАРИШЛАР 18-22

Назаров Азизбек Ёқубжонович

ТУРКИСТОН ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРЛИГИДА ИЛМИЙ ЖАМИЯТЛАР: ТАРИХШУНОСЛИК
ТАҲЛИЛИ 23-31

Abdulloyev Jamshed Izzatulloevich

MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA CHEGARA VA SUV MUAMMOLARINING VUJUDGA
KELISH ASPEKTLARI VA BUGUNGI RIVOJLANISH BOSQICHI 32-36

Пасилов Баҳодир Абдуллаевич

ЎЗБЕКИСТОН ССРДА СОВЕТ ИҚТИСОДИЁТИ АСОСЛАРИ ШАКЛЛАНИШИНИНГ АЙРИМ
МАСАЛАЛАРИ (1917-1937 йй.) 37-41

Ismailov G'afurjon Xasanovich

TURKIYADAGI O'ZBEK TEKKE (TAKIYA)LARIDAN BIRI "SULTONTEPA TEKKESI"
MUSOFIRLAR UCHUN TUTGAN O'RNI 42-46

Raxmatulloev Murodjon Xikmatulloevich

BUXORO VILOYATIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHGA
OID ISLOHOTLAR 47-50

Elmurodova Nilufar Baxtiyorovna

SHARQ VA G'ARB UYG'ONISH DAVRI MADANIYATI: QIYOSIY TAHLIL 51-55

Нафиддинова Хосият Равшановна

БУХОРО ВОҲАСИ АҲОЛИСИ ОИЛАВИЙ МАРОСИМЛАРИ ТАРИХИГА ДОИР
МАЪЛУМОТЛАР 56-60

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Zhang Hongzhi, Wu Bo

RUMOR RESILIENCE: HOW BUSINESSES ECONOMICALLY RESPOND TO STOCHASTIC RUMOR
SPREAD 61-66

Ibrayimova Dilnoza Abdisheripovna

MINTAQADA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI ONLINE SAVDO MARKETINGINI
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI 67-72

Nayimov Shoxruh

PROBLEMS OF FORMATION AND MANAGEMENT OF COLLATERAL PORTFOLIO OF A
COMMERCIAL BANK 73-79

| | |
|---|---------|
| <i>Maxkamov Navruzjon Tuxtamishovich</i> ISSUES OF APPLICATION OF QUALITY MANAGEMENT IN THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF ENTERPRISES AND ORGANIZATIONS FOR THE PURPOSES OF THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN | 80-88 |
| <i>Рахматуллаев Беҳзод Рахматуллаевич</i> ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ УСТУВОР МАСАЛАЛАРИ | 89-95 |
| <i>Abdullayeva Zamira Muxtarovna</i> МЕХНАТ ВОЗОРИ ТАЛАБЛАРИГА ОЛИЙ ТА’ЛИМ ХИЗМАТЛАРИ МОДЕЛЛАРИНИ МОСЛАСHTIRISH | 96-102 |
| <i>Имомов Холмурод Норқулович, Шарипов Тўлқин Саидахмедович</i> ИҚТИСОДИЁТНИНГ ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШИШИ ШАРОИТИДА ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЧИЛИГИНИНГ ШАКЛЛАРИ, МОДЕЛЛАРИ ВА МЕХАНИЗМЛАРИ | 103-114 |
| <i>Эргашев Ахмаджон Махмуджон ўғли</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ РИСКЛАРНИ АНИҚЛАШ ВА БОШҚАРИШ МЕТОДОЛОГИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ | 115-122 |
| 09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ | |
| <i>Imotova Nozimaxon Avazxonovna</i> JAMIYAT FAROVONLIGI TUSHUNCHASI VA UNING O’ZIGA XOS IJTIMOY-FALSAFIY XUSUSIYATLARI | 123-129 |
| <i>Qodirov Davronbek Hoshimovich</i> ABULQOSIM QUSHAYRIY VA UNING ILMIY FAOLIYATI | 130-133 |
| <i>Jabborova Saodat Sattorovna</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MA’NAVIY SALOHİYATNI YUKSALTIRISHDA QO’SHGAN HISSASI | 134-142 |
| 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ | |
| <i>Tuxtasinova Mahliyoхon Shavkatjon qizi</i> L.Z.BUDAGOV LUG’ATIDA ESKI O’ZBEKCHA SO’ZLARINING EKVIVALENTLAR YORDAMIDA IZOHLANISHI | 143-149 |
| <i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i> INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDA TA’LIM VA ILM MAZMUNLI FRAZEMALARDA EKVIVALENTLIK MASALASI | 150-154 |
| <i>Urazaliyeva Mavluda Yangiboyevna</i> UZBEKCORPUS.UZ PLATORMASIDA MORFOLOGIK TAHLIL INTERFEYSI VA DASTURIY TA’MINOTI | 155-160 |
| <i>Mirzayeva Yelena Sa’dullaevna</i> O’ZBEK MENTALITETI VA AXBOROTNI IDROK ETISH | 161-166 |
| <i>Alimjanova Shohsanam Azamat qizi</i> INGLIZ TILIDAGI KO’P MA’NOLI IBORALARNI O’ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH | |

| | |
|--|---------|
| USULLARI | 167-171 |
| <i>Iskandarova Shamsiyabonu Ulug'jonovna</i> BADIIY ADABIYOTDA MUALLIF VA TARIXIY QAHRAMON O'RTASIDAGI G'OYAVIY BOG'LIQLIK MASALASI (Laila Lalaming "Mavrning hisoboti" asari tahlili asosida) | 172-176 |
| <i>Hamroqulova Marjona Nabijon qizi</i> "MAHBUB UL-QULUB" ASARIDAGI FRAZEMALARNING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI | 177-181 |
| 12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР | |
| <i>Zulfikorov Sherzod Xurramovich</i> ҚОНУНЧИЛИК ПАЛАТАСИ ҚЎМИТА ВА КОМИССИЯЛАРИДА ДЕПУТАТЛАР ФАОЛИЯТИНИ ЯНАДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ | 182-191 |
| <i>Tallibaev Umiddjon Sherгазиевич</i> ОСОБЕННОСТИ ПРИВЛЕЧЕНИЯ К АДМИНИСТРАТИВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРАВОНАРУШЕНИЯ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИИ. | 192-199 |
| 13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ | |
| <i>Iminakhunova Iroda Huseynovna</i> THE MOST IMPORTANT REQUIREMENTS THAT ENSURE EFFECTIVE PEDAGOGICAL CONTROL OF STUDENTS' SELF-EDUCATIONAL ACTIVITIES | 200-206 |
| <i>Usmanaliev Khusniddin</i> INTERCULTURAL COMPETENCE IN THE TEACHING PROCESS OF A FOREIGN LANGUAGE | 207-219 |
| <i>Madaminov Uktam Ataxanovich</i> ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA FANLARNI MOBIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH METODIKASI | 220-224 |
| <i>Yuldasheva Dilfuza Qodirovna</i> TURIZM YO'NALISHI TALABALARIGA INGLIZ TILIDA SOHAVIY LEKSIKANI O'RGATISH USULLARI | 225-229 |
| <i>Tohirova Shohsanam Yunusovna</i> THE IMPORTANCE OF CASE TECHNOLOGY IN PRACTICAL ENGLISH CLASSES IN NON- PHILOLOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS | 230-236 |
| <i>Nuriddinova Muyassar Muhiddinovna</i> ORGANIZING PHYSICAL EDUCATIONAL EVENTS WITH PRESCHOOL CHILDREN | 237-242 |
| <i>Raxmatova Mexrinovna Majitovna</i> YOSHLAR MA'NAVIY SALOHİYATINI YUKSALTIRISHDA INNOVATION TARG'IBOT TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI | 243-247 |
| <i>Sheraliyev Odiljon</i> TALABALARNING DIGITAL KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI | 248-254 |

07.00.00-Тарих фанлари

Abdulloyev Jamshed Izzatulloevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi
abdullayevjamshid2022@gmail.com

MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA CHEGARA VA SUV MUAMMOLARINING VUJUDGA KELISH ASPEKTLARI VA BUGUNGI RIVOJLANISH BOSQICHI

Annotatsiya. Maqolada Markaziy Osiyo mamlakatlarida chegara va suv bilan bog'liq muammolar, ularning kelib chiqish aspektlari, shuningdek mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarda uning ahamiyati ochib berilgan. Shu bilan birga Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillikka erishgandan so'ng yuzaga kelgan milliy-etnik nizolar hamda O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston o'rtasidagi baxsli anklav hududlar masalasiga ham e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, anklav, delimitatsiya, demarkatsiya, suv, daryo, muzlik, chegara, milliy, etnik, yaylov, migratsiya, energiya, bojxona, iqlim

Abdulloyev Jamshed Izzatulloevich

Senior teacher at the Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

ASPECTS OF EMERGENCE OF BORDER AND WATER PROBLEMS IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES AND THE CURRENT STAGE OF DEVELOPMENT

Abstract. In the article, problems related to borders and water in the countries of Central Asia, aspects of their origin, as well as its importance in the relations between the countries are revealed. At the same time, attention is paid to the national-ethnic conflicts that arose after the independence of the countries of Central Asia and the controversial enclave territories between Uzbekistan, Kyrgyzstan, and Tajikistan.

Keywords: Central Asia, enclave, delimitation, demarcation, water, river, glacier, border, national, ethnic, pasture, migration, energy, climate

Абдуллоев Жамшед Иzzатуллоевич

Старший преподаватель, Денауский институт
предпринимательства и педагогики

АСПЕКТЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ПОГРАНИЧНЫХ И ВОДНЫХ ПРОБЛЕМ В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАП РАЗВИТИЯ

Аннотация. В статье проблемы, связанные с границами и водой в странах Центральной Азии, раскрыты аспекты их происхождения, а также его значение в отношениях между странами. При этом уделяется внимание национально-этническим конфликтам, возникшим после обретения независимости странами Центральной Азии, и спорным анклавным территориям между Узбекистаном, Кыргызстаном и Таджикистаном.

Ключевые слова: Центральная Азия, анклав, делимитация, демаркация, вода, река, ледник, граница, национальное, этническое, пастбище, миграция, энергия, климат.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I6/SY2023N04>

Kirish. Ma'lumki, davlat chegaralari davlatlar o'rtasidagi va umuman mintaqa doirasidagi munosabatlardagi keskinlik darajasini yoki, aksincha, hamkorlikni belgilovchi asosiy omil hisoblanadi[12: 329-340]. Hozirgi vaqtda Markaziy Osiyo davlatlari o'zlarining davlat chegaralarini tartibga solish bilan bog'liq ko'plab muammolarga duch kelmoqdalar, chunki tashqi chegaralardan farqli o'laroq, mintaqada, ayniqsa Farg'ona vodiysida chegaralarni belgilash jarayoni haligacha tugallanmagan[13:518-525].

Sovet Ittifoqning 70 yillik davridan Markaziy Osiyo mamlakatlariga og'ir iqtisodiy va siyosiy meros qoldi. O'shanday meroslardan biri chegaraviy va suv muammolaridir. SSSR qulaganiga 30 yildan oshiq vaqt o'tgan bo'lsa-da, Markaziy Osiyo mintaqasida chegaraviy muammolar to'liq hal etilgani yo'q. 1991-yilda SSSR parchalanganidan so'ng chegara hamda suv bo'yicha keskinliklar Markaziy Osiyoda bir necha bor mojarolarni keltirib chiqardi. Markaziy Osiyo davlatlarining yangi tarixida davlat chegarasi chizig'ini huquqiy rasmiylashtirish muammosi alohida o'rin tutadi.

Muhokama va natijalar. Markaziy Osiyoda yuqorida keltirilgan muammolarning eng keskinlashgan hudud sifatida Farg'ona vodiysini tilga olish lozim. Farg'ona vodiysi XIX asrda Qo'qon xonligi, 1917-yilgacha Rossiya imperiyasi va 1918-yildan sovet davlatining hududiy qismiga aylandi. 1924-yilgi milliy-hududiy chegaralanish vodiy xaritasini tubdan o'zgartirib yubordi. Sovet hukumati tomonidan Farg'ona vodiysida yer-suv islohotiga birinchi urinish 1921-yilda Qo'qonning Konibodom tumanida, Andijonning Jalolobod tumanida va O'sh uyezdining ayrim hududlarida amalga oshirildi. Islohot natijasida mazkur hududlarda yashovchi 1618 xonadon quvg'in qilindi, ularning aksariyati rus va ukrainalik boy ko'chmanchilar (kulaklar) bo'lib, 110 ming gektardan ortiq yer musodara qilindi[1:57-58]. Yangi chegaralarning belgilanishi natijasida Farg'ona vodiysi uchta milliy-ma'muriy tuzilmaga bo'lindi. Oqibatda u mustaqil iqtisodiy va madaniy yaxlitlik sifatida siyosiy xaritadan yo'qolib, o'z o'rniga bo'lingan uchta ittifoq respublikasini bog'lovchi chekka hududga aylandi[2:114]. Etnik-milliy xarakterga ko'ra aholi o'z nomlanishidagi milliy davlatlarga birlashtirildi. Ammo bunga har doim ham amal qilinmadi. Misol uchun milliy chegaralanish davridan keyin vodiy hududidagi ko'plab tojik va qirg'iz aholi yashaydigan hududlar O'zbekiston SSR tasarrufiga, aksincha ba'zi o'zbek aholi yashaydigan hudud tojik va qirg'iz davlatlariga qo'shib yuborildi. Buning natijasida mintaqada anklav hududlar paydo bo'ldi. Bu keyinchalik O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston davlatlari o'rtasida Farg'ona vodiysida mavjud bo'lgan anklavlar (8 ta anklav, 10 ta bahsli hudud) da chegara chizig'ini o'tkazish, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilishni muammoga aylantirdi[11: 599]. Bu jarayonda o'zaro maqbul yechimga erishishga tomonlarning chegaradosh aholisining manfaatdor e'tibori to'sqinlik qilmoqda, ular bu yerda tabiiy resurslar – ekin maydonlari, yaylovlar, pichanzorlar, o'rmonlar, suv, yoqilg'ining keskin tanqisligi sharoitida chegara chizig'ini delimitatsiya qilish bo'yicha muzokara olib borayotganlar faoliyatiga ishonchsizlik bildirishmoqda. Chegara hududlarini ularning tabiiy boyliklari bilan adolatli taqsimlash imkoniyati haqidagi shubhalar mojarolarning sabablari hisoblanadi. Sovet zamonidagi no'noq siyosat natijasida vujudga kelgan anklavlar bugun qo'shni davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning ijobiy rivojlanishini murakkablashtiruvchi omillardan biridir[3: 451].

1991-yilda Sovet Ittifoqining parchalanishi Farg'ona vodiysini hamon bir-birining hududlariga da'vogarlik qilayotgan uch davlat o'rtasida bo'lib tashladi. 1920, 1950 va 1980-yillarda Farg'ona vodiysining turli chegaralarini ko'rsatuvchi sovet davridagi xaritalardagi

nomuvofiqliklar tufayli chegaradagi kelishmovchiliklarni hal qilish bo'yicha muzokaralar yillar davomida to'xtab qoldi[10: 334-350]. Bu esa Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi chegaraviy konfliktlarga sabab bo'ldi. XX asrning so'nggi o'n yilligida O'zbekiston-Qirg'iziston, O'zbekiston-Tojikiston chegaralariga yaqin hududlarda bir qator siyosiy jarayonlar, milliy – etnik voqeliklar hattoki, qonli to'qnashuvlar sodir bo'ldi. 1990- yilda O'shdagi qonli to'qnashuvlar, 1992-1997 yillarda Tojikistonda kechgan fuqarolar urushi va migratsiya to'loqini, 1999-yil fevral Toshkentdagi terrorchilik harakati kabilar qo'shni davlatlarning chegara postlarida qo'riqchilarni kuchaytirish, bojxona tartiblarini kuchaytirish, sim to'siqlar bilan chegara chiziqlarini mustahkamlash, aholini bir Respublikadan ikkinchisiga o'tib-qaytishini qat'iy nazoratga olish, chegarachi – qo'riqchilar sonini keskin oshirishdek bir qator, tadbirlarni ko'rishga majbur etdi[5:479]. 2010-2018 yillardagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, mintaqada har yili 10 dan ortiq chegara mojarolari, jumladan, qurolli mojarolar ro'y beradi. Ularning eng ko'pi 2013-yilda sodir bo'lgan, unda tomonlarning chegara qo'riqchilari tinch aholi va fuqarolar o'rtasida 41 ta to'qnashuv kuzatilgan. 2017-yilda Qirg'izistonning Tojikiston va O'zbekiston bilan chegarasida 14 ta to'qnashuv bo'lib 2018-yilda ham davom etdi. Eng katta to'qnashuvlardan biri 2022-yili Tojik-Qirg'iz chegarasida bo'ldi. To'qnashuvda 100 dan ortiq kishi halok bo'ldi.

So'nggi yillardagi iqlim o'zgarishi mintaqaning suv ta'minotini o'zgartirar ekan, ayniqsa, O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikistonni qamrab olgan unumdor va iqtisodiy jihatdan muhim Farg'ona vodiysi mintaqasida resurslarga da'volar keskinlashmoqda[11:598]. 1991-1992-yillarga kelib mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo mamlakatlarida suv hamda chegaraviy nizolarni keltirib chiqardi. Shu fonda Tojikiston va Qirg'izistonning hali yetarlicha aniqlanmagan istiqbolida milliy suv iste'moli hajmini oshirish niyatlari yoki O'zbekistonning Farg'ona vodiysida yangi yirik suv havzalarini qurishni nazarda tutuvchi loyihalari ham boshqa tomondan qaraganda mintaqadagi suv munosabatlarning beqaror tizimini yanada buzishga sabab bo'lishi mumkin.

Daryoning yuqori oqimida joylashgan Qirg'iziston va Tojikistonda energiya resurslari yetishmaydi, lekin baland tog'li suv omborlarida gidroenergetika uchun suv ko'p. Ayni paytda O'zbekistonda gaz va elektr energiyasi bor, biroq oziq-ovqat xavfsizligi uchun doimiy suv ta'minoti talab etiladi. Oxirgi 30 yil ichida suvga bo'lgan talabning turlicha bo'lishi, ayniqsa, O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov davrida mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarning sovuqlashishiga olib keldi. 1990-yillarda Qirg'iziston va O'zbekiston (Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari bilan birga) sakkizdan ortiq shartnoma imzolagan bo'lib, ularda hamkorlikda ishlash va suv sohasida hamkorlik darajasini oshirish majburiyatini olgan. Biroq so'nggi yillarda mutaxassislarning fikricha, ayniqsa Farg'ona vodiysida suv taqchilligi kuchayib borayotganligi munosabati bilan bu sa'y-harakatlar yanada kuchaygan.

“2016-yilda Shavkat Mirziyoyev hokimiyatga kelganidan so'ng Qirg'iziston va O'zbekiston o'rtasida konstruktiv hamkorlik yo'lga qo'yildi”, deydi Qirg'izistonda joylashgan nodavlat tashkilot loyihasi bo'lgan “Oy Ordo” ekspert tashabbuslari markazi direktori Igor Shestakov. “Mamlakatlar ikki tomonlama kun tartibida, jumladan, suv munosabatlarini yo'lga qo'yishda, garchi bu qiyin vazifa bo'lsa-da, ijobiy siljishlarga erishmoqda”. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti (TIAME) professori Abdulhakim Salohiddinovning ta'kidlashicha, 2021-yil boshida ikki davlat Qirg'izistondagi Orto-Tokoy suv ombori va Kosonsoy deb nomlanuvchi O'zbekiston va Qirg'izistondagi suv

ombori bo'yicha 2017-yilgi kelishuvga o'zgartirishlar kiritgan[2:253]. Shu bilan birga, mamlakatlar elektr energiyasi evaziga suv yetkazib berishga kelishib oldilar.

Umuman olganda, chegaradagi muammoni hal qilishning ikkita varianti mavjud — hududlarni almashtirish yoki onalik hududidan eksklavlarga yer yo'laklarini yaratish. Biroq, bu bahsli hududlarda yashovchi odamlarning his-tuyg'ulari muammoning zamirida yotadi. Eng maqbul yechimlardan biri bu yer almashish bo'lib ko'rinadi, ya'ni anklav hududlari evaziga chegara bo'ylab bir xil o'lchamdagi yerlar beriladi. Biroq, ayirboshlash uchun mo'ljallangan hududlar aholisining o'zlari uchun begona bo'lgan, to'satdan o'zlarini topib olgan mamlakat fuqaroligini qabul qilishga tayyorligi qiyin masala[8:]. 2010-yilda Qirg'iziston janubidagi millatlararo to'qnashuvlarda 400 ga yaqin o'zbek halok bo'lgan O'shdagi fojiali voqealar tufayli qirg'izlar va o'zbeklar o'rtasida bir-biriga nisbatan chuqur qo'rquv borligini ham unutmash kerak. Muqobil variantdan foydalanishni amalga oshirish ham qiyin, chunki odamlar bu anklavlarda asrlar davomida yashab kelishgan o'z ajdodlari va qarindoshlarining yerini tark etish, bu ularning madaniyati uchun qabul qilinishi mumkin emas[9:]. Bundan tashqari, aholi zich joylashgan So'x (50 ming kishi) va Shohimardon (taxminan 5 ming kishi) anklavlarini ko'chirish davlat tomonidan katta xarajatlarni talab qiladi. Shuni inobatga olgan holda, qolgan chegaralarni tartibga solish yig'indisidagi barcha oldingi to'siqlarni olib tashlashdan ko'proq vaqt va kuch talab qiladi, deb taxmin qilish mumkin.

Ammo olib borilayotgan sa'y-harakatlarga qaramay, Farg'ona vodiysidagi chegaraviy muammolarni hal etish masalasi hamon dolzarb. Ekspertlarning qayd etishicha, Markaziy Osiyoda hududiy nizolar masalasi juda uzoq vaqt davomida murakkab va dramatik tarzda hal etilgan. Sovet zamonida Markaziy Osiyo mintaqasidagi qardosh xalqlar o'rtasidagi chegaralar noaniq, amorf bo'lganini ta'kidlash mumkin. Hozirgi sharoitda muammoni har tomonlama hal etish, bunda teng huquqli maslahatlashuvlar, o'zaro tushunish va o'zaro kelishuv asosida chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonlarini jadallashtirish ustuvor vazifa sifatida eng maqbul yechim hisoblanadi. Chegara masalasining o'zaro maqbul yechimiga erishish jarayonining muhim tarkibiy qismi xalqaro huquqiy bazani yaratish orqali chegara tabiiy-kommunikatsiya resurslaridan o'zaro manfaatli va oqilona foydalanish yechimini profilaktik izlash hisoblanadi. Anklavlar va ularning atrofidagi aholining yashashi uchun sivilizatsiyalashgan sharoitlar tomonlarning har bir tomon manfaatlarini maksimal darajada hisobga olgan holda anklavlar rejimi to'g'risidagi bitimni qabul qilishlari bilan yaratilishi mumkin[4:45].

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki Sovet hukumati tomonidan Markaziy Osiyoda amalga oshirilgan aholining etnik tarkibi hamda lingvistikasiga qarab milliy hududiy chegaralanish siyosati (1924-yil) natijasida mintaqada beshta mustaqil davlatlarning tashkil topishi hamda mintaqada etnik, chegara, resurslardan foydalanish, logistika, energetika hamda suv muammolarini keltirib chiqardi va bu holat bugungi kunda ham Markaziy Osiyo davlatlari orasida yechimini topa olmayotgan muammoga aylandi.

Литература/Адабиётлар/References:

1. Кунакова.Л.З. Земельно-водная реформа в Ферганской долине (1925–1926), Ош, 1962.
2. Starr, S. Frederick. Ferghana Valley: the heart of Central Asia / edited by S. Frederick Starr, Baktybek Beshimov, Inomjon I. Bobokulov, and Pulat Shozimov. New York.2011

3. Аламанов.С.К. Анклавы в Центральной Азии. Постсоветские исследования. Т. 1. № 5 (2018), 451
4. Аламанов С.К. Краткая история и опыт решения пограничных проблем Кыргызстана. Бишкек, 2005
5. Дегтерёв Д.А. Внешняя политика стран СНГ (учеб. пособ.). –М.: “Аскент- Пресс”, 2017 с. 469
6. Сатылганова.Н.А.Территориально-пограничны проблемы назависимого Кыргызстана. – Автореф. дисс. На соиск.учён.степ.канд. ист. наук. – Бишкек -2019.
7. Шарафиева О.Х. Гражданская война в Таджикистане. (1990-1997 гг). –Автореф. дисс. на соиск.учён.степ. канд. ист наук. –Томск-2010
8. P. Baumgartner.(2017). Tug-Of-War: Uzbekistan, Kyrgyzstan Look To Finally Settle Decades-Old Border Dispute. Available at :[https://www.rferl.org/a/uzbekistan-kyrgyzstan-resolving-decades-old-border-dispute / 28918059. html](https://www.rferl.org/a/uzbekistan-kyrgyzstan-resolving-decades-old-border-dispute-/28918059.html). Accessed on: 19.02.2018
9. Z.Baizakova. (2017). Border Issues in Central Asia: Current Conflicts, Controversies and Compromises. *UNISCI*, [e-journal], No.45. Available at: DOI: <http://dx.doi.org/10.5209/RUNI.57292>. Accessed on: 09.02.2018.
10. A. Borthakur. (2017). An Analysis of the Conflict in the Ferghana Valley, *Asian Affairs*, [e-journal], 48(2): 334-350. Available at: DOI: 10.1080/03068374.2017.1313591. Accessed on: 12.02.2018.
11. Sh.Hayitov, B.Rizaev. Hozirgi bosqichda O‘zbekistonning chegaraviy-hududiy muammolari.Scientific Progress. Volume 2. Issue 2. 2021
12. A. Moraczewska. (2010). The Changing Interpretation of Border Functions in International Relations. *Revista Română de Geografie Politică*, [e-journal], 12(1):329-340. Available at: http://rrgp.uoradea.ro/art/2010-2/11_RRGp-202-Moraczewska. Accessed on: 13.02.2018
13. R. Tashtemkhanova, Z. Medeubayeva, A. Serikbayeva., M. Igimbayeva. (2015). Territorial and Border Issues in Central Asia: Analysis of the Reasons, Current State and Perspectives. *The Anthropologist*, [e-journal], 22(3): 518-525, Available at: DOI: 10.1080/09720073.2015.11891910. Accessed on: 13.02.2018.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 5/6 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).